

ASALARILAR NISHINING TUZILISHI

Jamolov R. Q.,
Farg'ona davlat universiteti-o'qituvchi.

Qayumova G. A.,
Farg'ona davlat universiteti-talabasi.

Azizov R. O.
Farg'ona davlat universiteti-talabasi.

Annotatsiya:

maqolada asalarining nish a'zolari juda murakkab tuzilganligi va qorinning oxirgi halqasi tagida joylashganligi. Nishning markaziy qismini salazka, ya'ni chanacha yoki harakatlanmaydigan qism egallagan, chanachadan juft o'simta va plastinka boshlanadi. Chanachada esa stilet yoki harakatlanadigan qism o'simtasi yondoshgan. Chanachadagi o'qning o'yilgan yo'nalishi bo'ylab, stilet harakat qiladi. Stiletning orqa atrofi sezish tukchalari bilan qoplangan, ikkita yumshoq plastinka yordamida bekilib turishi keltirilgan.

Kalit so'zlar: stilet, plastinka, tuxumdon, o'simta, slazka, zahar bezi, zahar puffagi, kichik zahar bezi, zahar nayzasi, tuxum naychalari, urug'don, tergit, sternit, zahar bezlarini, asalari xajmi, kata zaxardon, kichik zaxardon, haraktlanuvchi qism.

АППАРАТ ПЧЕЛИНИЦЫ И ЕГО УСТРОЙСТВО.

Жамолов Р., К.,
Ферганский государственный университет – преподаватель.

Каюмова Г., А.,
Студентка Ферганского государственного университета.

Azizov R., O.,
Студент Ферганского государственного университета.



Аннотация:

в статье гнездовые органы пчел очень сложны и расположены под последним кольцом брюшка. Центральную часть ниши занимает салазка, т.е. салазки или неподвижная часть. К салазкам крепится стилет, или подвижная часть. Стиллет движется по направлению стрелки в салазках. Тыльная сторона стилета покрыта чувствительными волосками, удерживаемыми двумя мягкими пластинами.

Ключевые слова: стилет, пластинка, завязь, рост, слизь, ядовитая железа, ядовитая струйка, малая ядовитая железа, ядовитое копьё, яйцеводы, яичко, тергит, стернит, ядовитые железы, размер пчелы, ката яд, коробочка, подвижная часть.

STRUCTURE OF THE BEES' NICE

Jamolov R., K.,

Fergansky Gosudarstvennyy University - lecturer.

Kayumova G., A.,

Student of Fergana State University.

Azizov R., O.,

Student of Ferganskogo Gosudarstvennogo University.

Annotation:

In the article, the nest organs of bees are very complex and are located under the last ring of the abdomen. The central part of the niche is occupied by the salazka, i.e. the sled or non-moving part, from the sled begins a pair of growths and a plate. A stylet, or movable part, is attached to the sled. The stylet moves along the direction of the arrow in the sled. The back of the stylet is covered with sensory hairs, held in place by two soft plates.

Keywords: stylet, plate, ovary, tumor, slime, venom gland, venom sac, minor venom gland, venom spear, oviduct, testis, tergite, sternite, venom glands, bee size, catarrh, minor venom, moving part .



Kirish

Asalarining nish a'zolari juda murakkab tuzilgan va qorinning oxirgi halqasi tagida joylashgan. Nishning markaziy qismini salazka, ya'ni chanacha yoki harakatlanmaydigan qism egallagan, chanachadan juft o'simta va plastinka boshlanadi. Chanachada esa stilet yoki harakatlanadigan qism o'simtasi yondoshgan. Chanachadagi o'qning o'yilgan yo'nalishi bo'ylab, stilet harakat qiladi. Stiletning orqa atrofi sezish tukchalari bilan qoplangan, ikkita yumshoq plastinka yordamida bekilib turadi. Tinch holda turgan asalarining himoya qiluvchi nish a'zolari ko'zga ko'rinmaydi, chunki u qorin bo'shlig'iga kirib turadi.



Ishchi asalari himoya apparatining tuzilishi.

1-katta zahar bezi, 2-zahar puffagi, 3-kichik zahar bezi, 4-zahar nayzasining harakatga keltiruvchi muskullar, 5-nayzasi – stilet. (haraktlanuvchi qism).

Tadqiqot natijalari. Asalari chaqqanda stilet, ya'ni harakatlanuvchi nayza qismi, chanacha bo'ylab harakatlanib, tashqariga chiqadi va tanaga sanchiladi. Asalari chaqqandan so'ng, uning nayzasida nishining harakatiga teskari joylashgan ilgakchalari bo'lib, nishini sug'urib olishga yo'l qo'ymaydi va oqibatda asalari uchishga harakat qilganda, uning nish a'zolari, sanchilgan joyda uzilib qoladi. Shu paytda asalari nishidan 0,4-0,8 mg gacha zahar oqib chiqadi. Nayzasi uzilgan va jarohatlangan asalari bir oz vaqt o'tgandan so'ng, halok bo'ladi. Asalarining nish a'zosi o'z tanasidan uzilgandan keyin ham, inson tanasida sanchishni davom ettiradi, chunki nayzaning himoya a'zosini harakatlanmaydigan chanacha hamda harakatlanadigan stilet qismlarida yopishgan muskullar harakatlanishini, teriga sanchilgan joyida davom ettiraveradi. (462-466 b. 229-233 b.)



Asalari nish a'zosida ikki xil zahar bezlari, katta va kichik zahar bezlaridan iborat. Ishchi asalarining zahar bezlarining uzunligi 9-20 mm, ona asalarida esa 30-49 mm.

Katta zahar bezi uzun, ipsimon va ikkiga ajralgan naychali qismdan hamda kengaygan joy zahar to'planadigan idishsimon rezervuardan iborat. Ipsimon qismida zahar suyuqligi ishlab chiqariladi. Asalari chaqmaguncha bu zahar rezervuarlarda saqlanadi.

Kichik zahar bezi qisqa naycha bo'lib, chanachani asosiga ochiladi. Asalari zahar bezlarining suyuqligi chanachaning pastki qismidagi tarnovcha orqali, jarohatlangan joyga tushadi. Asalari odam yoki boshqa sut emizuvchilarga nishini sanchgan vaqtda, harakatlanuvchi nish, o'zining ilmoqchalari tufayli jarohatga sanchilib qoladi va nishini chiqarib ololmaydi, natijada nishi uzilib qoladi va biroz vaqt o'tgach asalari nobud bo'ladi.

Asalari hayotining ikkinchi-uchinchi kunida, uning zahar bezlarida juda oz miqdorda zahar to'plashi aniqlangan.

Oltinchi–ettinchi kunlarida esa zahar to'planishi, bir muncha oshadi va asalari qorinchasidagi zahardon, zahar moddasiga ancha to'lib boradi. Zahar miqdorining eng ko'p ishlab chiqaradigan davri, bu asalari hayotining 11-16 kunlari hisoblanadi. Shundan so'ng ishchi asalarilar o'z uyasini qo'riqlash va soqchilik qilish kabi davrlarga o'tadi va shu davrda uning zaharoni to'liq zahar moddasiga to'lgan davr hisoblanadi. (462-466 b. 462-466 b.)

Asalarining 30 kunligidan keyin, uning zahardonini rangi sarg'ayib, asta-sekinlik bilan qo'ng'ir rangga kira boshlaydi va zahar ishlab chiqarish faoliyati batamom tugaydi.

Kuz faslida yetishtirilgan asalarilarning zahardonida zahar to'planishi faqatgina 14-15 chi kunlaridan so'ng tugaydi.

Asalari zahardonidagi zahar moddasini to'planishi, bu asalarining zotiga, yil fasllariga va uning ozuqasi tarkibiga bog'liq. Birta asalarining zahardonidagi zahar miqdori o'rtacha 0,4-0,8 mg ni tashkil etadi. (55-57 b. 295-301 b.)

Xulosa: Asalari oilalaridagi asalarilarning katta zahar bezi ishlab chiqaradigan zaharli suyuqligi kislotalik va kichik zahar bezi suyuqligi esa ishqoriy xususiyatga ega. Bu har ikkala zaharli moddalarning birgalikdagi ta'siri organizmda kuchli ta'sir etadi, agarda zaharli moddalar alohida-alohida ta'sir ettirilsa, ular hech qanday ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Asalari zahrining hidi oiladagi boshqa asalarilarni hayajonlantiradi va seskantiradi. Shuning uchun, asalarilarni chaqishidan saqlanish maqsadida



asalarichi boshiga yuz niqobi va egnida mahsus kiyim kiyishi, asalarilar bilan osoyishta muamola qilishi hamda asalarichilar alatta shaxsiy gigiena va sanitariya qoidalariga rioya qilishlari lozim. Bulutli va shamolli kunlarda asalari oilasiga qarovlar o'tkazish tavsiya etilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Isamuhamedov A.I. Nikadamboev X.K. Asalarichilikni rivojlantirish asoslari. Toshkent. «Sharq» nashriyoti, 2013.
2. Kraxotin N.F. O'zbekistonda asalarichilik. Toshkent. "Mehnat". 1991.
3. R.Jamolov, O.To'rayev, D.Xatamova, «Asalarichilik asoslari», O'quv qo'llanma. 2022 yil.Farg'ona. "Classik" nashriyoti. (55-57 b.)
4. Qaxramonov B., Isamuhamedov A., Ballasov U., Ergashev S., To'raev O.S. Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida asalari oilalarini parvarishlash. Toshkent, 2009.
5. Нуждин А.С. и другие. Учебник пчеловода, Москва. «Колос», 1984.
6. Jamolov, R., Tolipova, X., Oxunova, D. (2022). O 'zbekiston iqlim sharoitida asalarilarning vorroatoz kana kasalligi va unga qarshi kurashish usullari. *Science and innovation*, 1(D7), 50-55 b.
7. Kushmatovich, J. R., Safarovich, T. O., Rustamovna, J. D., & Pardaevich, A. T. (2022). The effect of artificial insemination of queen bees in the fergana valley on its ovulation. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(6), 1-5 b.
8. Qoshmatovich J. R. et al. Technology of feeding families of bees in different types of households in uzbekistan //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 3. – C. 295-301 b.
9. Jamolov, R., Azizov, R., O'Ktanova, Z. (2022). Asalari oilalarining tinch yo'l bilan ona asalarini almashtirishi va ona asalari sifatiga ta'sir etuvchi omillar. *Science and innovation*, 1(D7), 229-233 b.
10. Jamolov Rapiqjon Kushmatovich, "The role of bee pollination in uzbekistan and its role in increasing productivity." *Pedagogs jurnali* 12.2 (2022): 176-179 b.
11. Jamolov, R., To'raev, O., Azizov, R. (2022). Farg'ona viloyatining tog'va tog'oldi xudud sharoitida parvarishlanayotgan erkak asalarilarning yoshiga qarab sperma urug'ini yetilishi va o'zgarib turishi. *Science and innovation*, 1(D8), 496-501 b.
12. Jamolov, R. Q., Xatamova, D. M., Xolmatova, M. A. (2022). Asalning tasnifi va kimyoviy tarkibi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 1031-1036 b.



13. Jamolov, R., Abduvaliyev, B., Ma'Murova, Z. (2022). O 'zbekistonda asalarichilikni rivojlantirish va uning ahamiyati. *Science and innovation*, 1(D8), 462-466 b.

14. R.Q.Jamolov., D.M.Xatamova., M.A.Xolmatova. "Asalarilar oilasining yashash tarzi". *Science and innovation*, 1(D7), 666-671 s.

